



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 27-may, seshanba,  
62 (24.088)-son

O'zbek xalq  
maqoli

Gap bilan  
shoshma,  
ish bilan  
shosh

# Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews\_uz https://twitter.com/zarnews\_uz

Tahlil, taqqos



## Sektorlar tugatildi, sayyor qabullar-chi?

aholi murojaatlarini ko'rib  
chiqishning ahvoli haqida

Joriy yilning dastlabki uch oyida Prezident Virtual va Xalq qabulxonasi Samarqand shahar aholisidan 3786 ta murojaat bo'lgan.

Bu boshqa hududlarga nisbatan ko'pligi o'z yo'lga, ammo mavjud holat va sohaga oid ayrim gaplar bor.

Jumladan, murojaatlarda asosan huquqbuzarliklar haqida xabarlar (429 ta), ijro ishi, aliment va qarz undirish (275 ta), tabiiy gaz (234 ta), elektr energiyasi ta'minoti (173 ta), pensiya va ijtimoiy ta'minot (161 ta), uy-joy bilan ta'minlash (113 ta) hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyati (112 ta) bilan bog'liq masalalar ko'tarilgan.

ENG KO'P ...

Matonat. Qorasuv va Said mahallalaridan boshqa hududlarga nisbatan ko'p murojaatlar qayd qilindi. Xususan, Matonat mahallasidan 24 fuqarodan 129 ta masala (rahbarlar qabulini tashkil etish so'rovi (92 ta), sudlarda jinoyat ishi ko'rilishi (12 ta), uy-joy kommunal xo'jaligi (14 ta) ko'tarilgan.

Qorasuv mahallasidan 69 nafar fuqaro 95 ta masala (xizmatchilar xatti-harakatlari bilan bog'liq masalalar (16 ta), ijtimoiy ta'minot (13 ta), xavfsizlik va huquq-tartibot (18 ta), sudlarda jinoyat ishi ko'rilishi (13 ta) bo'yicha murojaat ro'yatga olingan.

Said mahallasidan esa 39 nafar fuqarodan 89 ta masala (xizmatchilar faoliyati va xatti-harakatlari bilan bog'liq masalalar (30 ta), iqtisodiy faoliyat va iqtisodiyotdagi davlat boshqaruvi (16 ta), uy-joy kommunal xo'jaligi masalasida (10 ta), ijro ishi, aliment va qarz undirish (8 ta) yuzasidan ariza va shikoyatlar qayd qilingan.

Bundan tashqari, 53 ta jamoaviy xarakterdagi murojaatlar kelib tushgan va shundan 11 tasi ijobiy hal etilgan.

Bunday murojaatlarda asosan o'zboshimcha (noqonuniy) qurilish (10 ta), ish haqi to'lash bilan bog'liq muammolar (2 ta), mahalla ichki yo'llarini qurish, ta'mirlash, shag'al-lashtirish, asfaltlash (2 ta), yer maydonini (uchastkasini) o'zboshimchalik bilan egallab olish va qonunga zid foydalanish (2 ta), firibgarlik to'g'risida xabar (2 ta), turarjoyini ichimlik suvi tarmog'iga ulash (2 ta) bilan bog'liq masalalar ko'tarilgan.

MUNOSABAT  
O'ZGARISHI KERAK (!?)

Murojaatlar bilan ishlash borasidagi tartibda vaziyatni tizimli nazorat qilish va monitoring qilib borish ko'zda tutilgan. Bu ishni bajaradigan xodimlarga shunday ko'nikmalarni o'rgatish, har uch yilda bir marta malakasini oshirish ko'zda tutilgandi.

Vazirlar Mahkamasining bu haqdagi qarori nechog'lik ijro etilyapti? Bugun bu masalani o'rganib ko'rish zarurati tug'ilmoqda. Nega? Samarqand shahridagi tashkilotlar ish yurituvidagi Prezident Virtual va Xalq qabulxonalarini orqali kelib tushgan 139 ta murojaatni ko'rib chiqishning qonunda belgilangan muddati buzilgan. Aniqlik, murojaat yuzasidan javoblar tizimga kechikib kiritilgan.

Jumladan, majburiy ijro byuro-sida 4 ta, mahallalar uyushmasida 1 ta, ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasida 1 ta, elektr tarmoqlari xoxonasida 1 ta, uy-joy qurilish va xizmat ko'rsatish bo'limida 1 ta murojaat qonunda belgilangan muddatdan kechiktirib ko'rib chiqilgan.

Kelishish mumkin bo'lgan turli vajlarni aytishingiz mumkin. Har qanday holatda ham xulosa shunday:

murojaatlar bilan ishlash sohasidagi ayrim xodimlar o'z vazifasini to'laqonli bajarmayapti, ba'zi tashkilot rahbarlari bu borada e'tiborli bo'lishga hafsala qilmayapti.

Oddiy misol, muammolar joylarda o'z yechimini topmaganligi tufayli 3 oy davomida Samarqand shahrida yashovchi 28 nafar fuqaro 40 ta masala bo'yicha Toshkent shahriga borib Prezident Xalq qabulxonasiga murojaat topshirgan.

**SAVOLLAR KO'P, JAVOB QACHON BERILADI?**  
Ma'lum qilinishicha, shahar kam-bag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tomonidan Prezident ishonch telefoni orqali kelib tushgan joriy yil 14-yanvardagi bandlik masalasidagi murojaat bo'yicha vakolat doirasida choralar ko'rilgan. Yomoni shundaki, murojaatni o'rganish natijalariga fuqaro nomidan ma'lumotlar soxtalashtirib kiritilgan va qaror qabul qilingan.

Axir bunday holatlar uchun tegishli javobgarlik ko'zda tutilmaganmi?  
Bundan tashqari, Samarqand shahar oila va xotin-qizlar bo'limida ham murojaatlarni ko'rib chiqishga yuzaki yondashilmoqda. Misol uchun, bir necha holatda muammoni hal etish choralarini ko'rilmasdan, murojaatchilarga sudga murojaat qilish xuquqi tushuntirilib, javob yuborilgan.

Qayd qilingan davrda davlat xizmatchilari xatti-harakatlari ustidan 527 ta shikoyat kelib tushgan. Xususan, profilaktika inspektori (70 ta), majburiy ijro byuro-si (49 ta), sog'liqni saqlash sohasi (40 ta), mahalla xodimlari (27 ta), bank (26 ta) va ta'lim sohasi (10 ta) xodimlari xatti-harakatlaridan norozi bo'lib murojaatlar yo'llangan.

Bu tizimlar rahbarlarini so'roq-savolga tutish kimning ishi? Nega holat bunday ko'rinish olyapti? O'zgarish qachon bo'ladi?  
Jamoatchilik bu savollar javobini bilishga haqli emasmi?!

Aytish mumkin, bu kabi savollar mavjudligi, aniqlik murojaatlariga munosabatning yaxshi emasligi sababidan Samarqand shahar aholisidan Virtual va Xalq qabulxonasi orqali 434 ta takroriy murojaat kelib tushgan.

**O'ZGARISHLARGA TAYYORMISIZ?**  
Xabaringiz bor, Prezidentning "Murojaatlar bilan ishlash borasidagi nazorat qilish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilingandi.

Unda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari qabuliga elektron navbatga yozilishni joriy qilish ko'zda tutilmoqda. Nima bo'пти, deiyishga shoshilmang!

Joriy yilning o'tgan 3 oyida shahar aholisidan Prezident Virtual va Xalq qabulxonalariga rahbarlar shaxsiy qabulini so'rab 71 ta murojaat kelib tushgan (ularning 10 tasida prezident qabuli so'ralgan).

Yana bir ma'lumot joriy yilning birinchi choragida davlat organlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari tomonidan 97 marotaba ommaviy qabullar o'tkazish rejalashtirilgan. Ammo bu rejaning yarmi bajarilgan.

Elektron navbat joriy qilinsa, odamlarning savollaridan qochib yurgan mutasaddilar keyin qayga bekinadi? Ular yangi tartib bo'yicha fuqarolar mahallalardan turib davlat organlari rahbarlariga video-alloqa orqali murojaat yo'llash amaliyoti joriy qilinishini bilishadimi?

**Y.MARQAYEV tayyorladi.**

**Bu yilgi Haj mavsumida viloyatimizdan 930 kishi 19 guruhga bo'linib, muborak ziyoratni amalga oshirishi belgilangan. Ular joriy yilning 26-28-may kunlari Samarqand xalqaro aeroportidan Saudiya Arabistoniga yo'l olishi rejalashtirilgan bo'lib, kecha 2 ta maxsus aviareysda 490 nafar ziyoratchi jo'nab ketdi.**

- Yoshim 70 dan oshgan, - deydi bulung'urlik Dilrom Safarova. - Ko'p yillardan beri ushbu muborak ziyoratni orzu qilardim. Bundan bir necha yillar ilgari, koronavirus pandemiyasi davrida yoshga doir cheklovlar qo'yilgandi. Ammo keyinchalik cheklovlar bekor qilinib, mana bu yilgi mavsumda niyatimni amalga oshirish nasib etganidan xursandman. Ibadatlarim bugungi saodatli kunlar uchun shukronalar aytib, Allohdan yurtimizga fayz, xalqimizga farovonlik, farzandlarimiz baxti, kamolini so'rashni niyat qilganman.

"Haj - 2025" mavsumida samarqandlik ziyoratchilar uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan 4 ta maxsus aviareys yo'lga qo'yilmoqda.

**To'lqin SIDDIQOV.**



## Muborak safarga kuzatildi



## Triatlon va para triatlon

bo'yicha jahon kubogi  
g'oliblari aniqlandi

**"Ipak yo'li" xalqaro turizm markazida triatlon va para triatlon bo'yicha "World Triathlon Cup Samarkand-2025", "World Triathlon Para Cup Samarkand-2025" musobaqalari bo'lib o'tdi.**

Samarqandda ikkinchi bor o'tkazilgan nufuzli musobaqada 35 dan ortiq mamlakat, jumladan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Avstraliya, Belgiya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Avstriya, AQSH, Vengriya, Italiyadan kelgan sportchilar ishtirok etdi.

Bahslarni para triatlonchilar boshlab berdi va sportchilar sprint yo'nalishida 750 metrga suzish, 19 kilometr velosiped po'g'iyasi va 5 kilometr yugurish bahslarida qatnashdi.

Matonatilar bellashuvda yakkalik va juftlik toifalarida turli yo'nalishlar bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Elit sportchilar esa standart yo'nalishda 1,5 kilometr suzish, 40 kilometr velosiped va 10 kilometr yugurish musobaqalarida kuch sinashdi.

Musobaqaning ushbu toifasida



**F.RO'ZIBOYEV.**

Uning horijda ishlash qaroriga hamma kuni b'ulgandi. Kuni ham gapmi, oila a'zolarining ba'zilari xursand b'uldi. Endi ularning ham xae'ti u'zgaradi! Ularning ham u'йда четдан к'п пул келиб туради, улар ҳам истаган кийим-кечак, анжомлар харид қилади. Ахир атрофдаги к'ни-к'шнилари аллақачон янги уйлар қуриб, чиройли жиҳозлар сотиб олди. Энди буларнинг барчаси уларнинг ҳам у'йда б'улади. Фақат ойиси озгина қийналади-да. Аёл самолётга чипта олиб, кетгунига қадар бу уйда аллақандай асабий, ҳам сукунат ҳукмрон б'улди.



## Мигрант АЁЛЛАР:

кутилмаган хавфлар,  
онлайн оналик, муносиб яшаш орзуси

- Нарсаларингни олдингми?
- Олдим.
- Иссиқ кийимларингни ҳамми?
- Албатта.
- Майиз билан ёнғоқ қолиб кет-масин...
- Бўлди-да энди, олдим уларни ҳам.

Хар куни бир неча марта қайтарилавергандан бу диалог болаларга ҳам ёд бўлиб кетди. Шу кунларда уйда тўсатдан пайдо бўладиган сукунат ичида ҳатто оддий томоқ қириш ҳам жаранглаб кетади. Қизи мактабдан келса, унга тушлик тайёрлаб беради-ю, хаёлида "мен кетсам, нима қиларкин болам" деган савол пайдо бўлади. Ўғлининг кийимларини юваркан, "мен йўғимда тоза-озода юрармикан болам" деган фикр миясини тегирмон тошидай эзди. Аммо у бу фикрлар қандай тез пайдо бўлган бўлса, шундай, яшин тезлигида миясидан қувиб солади. Кетишдан олдин кайфиятини бузгиси келмайди. Ахир олдинда уни қанча синовлар қутиб турибди. Иш топиб бераман, ҳаммаси тайёр, дея ишонтирган дугонаси айтганини қилармикан? Умрида самолётга чиқмаган бўлса. Аэропортларда чет тилини билмай, сарсон бўлиб қолмасмикан? Ишқилиб,

эсон-омон етиб олсин, Худонинг ўзи шарманда қилмасин! Хар куни, хар соатда минг турфа ўйларни бошидан ўтказди Саодат. Лекин шаштидан қайтмади. Ахир бошқаларга ўхшаб кўпга кетаётгани йўқ-ку, бор-йўғи уч йил ишлаб келса бўлди. Аҳволини ўнглаб олса, қизининг ўқшиги, сарполарига пул жамғарса бўлди, дарров қайтиб келади. Шундай деб ўзини тинчлантирди.

Ушанда бу гапларига ўзи ҳам ишонган, агар ишлари ўхшаб қолиб, ростдан ваъда этилган ойлик маош олиб ишлаб бошласа, бир-икки йилда ўзи мўлжал қилганларини жамлаб олиши ва яна жонажон уйига қайтиб келиши мумкинлигини ўйлаб, хотиржам бўлди. Хуллас, жомадонлар йиғилиб, аэропортга олиб борадиган такси эшик олдига келгач, оила а'золари жимгина хайрлашиб олишди. Қизи кўзига ёш олди, аммо аясининг йўл аввалида кўнглини хира қилгиси келмади шекилли, дарров артиб ташлади. Бир неча соатлардан кейин самолёт учи кетди. Болаларининг ва табиийки, турмуш ўртоғининг наздида ҳам уй хувиллаб қолгандай бўлди...

(Давоми 2-саҳифада) >>>



Хар қандай давлат тараққиётига асосий тўсиқ коррупция иллати ҳисобланади. Коррупция назорат тизими фаолияти заиф бўлган ижтимоий муҳитда юзага келади. Коррупцияни тўхтатиш назорат тизими фаолиятини кучли ва самарали қилиш билан боғлиқ. Назорат фаолиятининг кучлилиги ва самарадорлиги, аввало, ушбу фаолиятга доир билимга боғлиқдир. Билим, жумладан, назорат фаолиятига доир билим ҳам таълим тизимида шаклланади. Коррупцияни тўхтатиш учун таълим тизимида назорат фаолиятига доир билимни бериш чораларини кўриш замон талаби ҳисобланади. Назорат фаолиятига доир билим билан қуролланган жамият коррупцияни тўхтатишга ва жамият тараққиётининг муҳим шарт бўлган ижтимоий тартибни ўрнатишга қодир бўлади.

## Коррупцияга қарши курашда назоратга доир билим зарур

Бош мақсадимиз бўлган фаровон жамият қуришнинг энг муҳим шарт бу адолатли ижтимоий тартибнинг ўрнатилганлигидир. Ижтимоий тартиб муаммоси барча вақтларда энг мураккаб, энг долзарб муаммо бўлган ва бугунги кунда ҳам худди шундай бўлиб қолмоқда. Ижтимоий тартиб ҳуқуқ ва ахлоқ нормаларига риоя қилиш таъминланганлик ҳолати бўлиб, назорат фаолияти орқали таъминланади. Лекин назорат фаолияти ижтимоий тартибни ўрнатишга қодир бўлиши учун энг аввало, давлат ва жамиятнинг назоратга доир билими кучли бўлиши ҳамда улар ўртасида назорат борасида шериклик ўрнатилган бўлиши лозим. Давлат ва жамиятнинг шериклидаги назорати ижтимоий назорат деган тушунча билан ифодланади.

Бугунги кунда бутун дунё сингари Ўзбекистон ҳам адолатли ижтимоий тартибни ўрнатишнинг энг мақбул йўли сифатида демократик сиёсий тартибни эътироф этмоқда. Демократия ижтимоий назоратни, яъни давлат ва жамиятнинг назорат борасидаги ҳамкорлик ва шериклигини тақозо этади. Ижтимоий назорат демократиянинг муҳим элементи бўлиб, у жамиятнинг сиёсий-ҳуқуқий маданияти юксаклигига боғлиқ.

Жамиятнинг сиёсий-ҳуқуқий маданиятини ошириш энг аввало, таълим тизимида шаклландирилган билим ва маънавиятнинг юксаклик даражасига боғлиқ бўлади. Сиёсий-ҳуқуқий маданияти юксак жамиятгина ўзининг назорат функциясини амалга ошира олади. Шунинг учун таълим тизимида сиёсий-ҳуқуқий маданиятни шакллантирадиган ва назорат фаолиятига доир билимни кенгроқ бериш чораларини кўриш замон талаби бўлиб ҳисобланади.

Назорати механизмнинг ишлаб туришида назорат фаолиятига доир билимни берадиган "Ижтимоий назорат" фани муҳим роль ўйнайди.

Ижтимоий назоратга доир билим демократия шариоитида яшашга қодир бўлган авлодни тарбиялашда ва фуқаролик жамиятини кучли қилишда ҳамда фуқароларнинг мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларда фаол иштирок этишларини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Чунки ижтимоий назорат фани фақат назарий фан эмас, балки назарий-амалий фан ҳисобланади. Мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг энг муҳим шарт ижтимоий тартиб ҳисобланади ва унинг ўрнатилиши ижтимоий назоратга боғлиқ.

Олий таълим тизимида "Ижтимоий назорат" фани жорий қилиниши коррупцияни тўхтатишга қодир бўлган назорат тизимини шакллантиради. Коррупцияни бартараф қилиш эса бош мақсадимиз бўлган фаровон жамият қуришга хизмат қилади. Буни қўйидаги концепция билан ифодалаш мумкин: ижтимоий назорат ижтимоий тартибни таъминлайди, ижтимоий тартиб ижтимоий тараққиётни ижтимоий тараққиёт эса фаровон жамиятни таъминлайди.

**Фарҳод НАБИЕВ,**  
Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети профессори.

# Urgutda elektr ta'minotidagi muammolar kamaydimi?

- Uyimzdagi ASKUE hisoblagichi elektr ko'payib ketishi natijasida ishdan chiqib qoldi, yordam so'rab elektr ta'minoti idorasiga murojaat qilib keldim, - deydi Urgut tumani Chumchuqli mahallasida yashovchi Bibigul Barotova. - Beshta farzandni tarbiyalab kelyapman, mahallada "Ayollar daftari"da turaman. Bepul hisoblagich qo'yishning iloji bormi?



- Afsuski, imkoni yo'q, - deya javob berdi Urgut elektr ta'minoti korxonasi murojaatlar bilan ishlash bo'limi vakili. - Tartib-qoida bo'yicha dastlab ASKUE hisoblagichlar bepul o'rnatiladi. Agar turli sabablar bilan ishdan chiqib qolsa, uy egalari tomonidan yangisi xarid qilinib o'rnatiladi.

Joriy yilning o'tgan davrida elektr energiyasi bo'yicha 23 ta murojaat tushgan bo'lsa, ularning 18 tasi ijobiy hal etilgan. 7 tasiga huquqiy maslahat berilgan.

So'nggi yillarda elektr energiya ta'minotidagi yetishmovchiliklar urgutliklarning eng og'riqli nuqtalaridan biri edi. Endilikda "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filialining Urgut va Dehqonobod elektr ta'minoti bo'limlari tashkil etilgan bo'lib, 100 mingdan ziyod iste'molchiga elektr energiyasi yetkazib berilmoqda.

- Tumanning 80 ta mahallasida aholi xonadonlari tarqoq joylashgan bo'lib, 8 ta podstansiyaga ulangan transformatorlar orqali elektr energiyasi bilan ta'minlab kelyapmiz, - deydi Urgut elektr ta'minoti korxonasi rahbari Oybek Xoliqov jurnalistlar uchun tashkil etilgan press-turda. - Hududimizdagi 65242 nafar aholi, 2730 nafar yuridik iste'molchilarga ASKUE elektr hisoblagich o'rnatilgan bo'lib, onlayn tizimida ishlamoqda. Joriy yilda 80 dona transformator punkti va 158,7 kilometr uzatish tarmoqlarini ta'mirlash belgilangan bo'lib, hozirgacha 29 ta transformator punkti va 53,7 kilometr uzatish tarmoqlari ta'mirlandi.

"Obod xonadon - obod ko'cha - obod mahalla" dasturi bo'yicha Mo'minobod-1 mahallasida 2 ta transformator punkti, 156 ta temir beton ustun o'rnatildi va 4 kilometr

elektr uzatish tarmog'i tortilib, ishga tushirildi. Mo'minobod-2 mahallasida esa 1 ta transformator punkti, 80 ta temir-beton ustun o'rnatilib, 5 kilometr elektr uzatish tarmog'i tortildi. Shuningdek, Chumchuqli mahallasida 80 dona temir beton ustun o'rnatildi.

Tumandagi Beshkapa-1, Beshkapa-2, Chorchinor, Mirzabog'lon, Mingtepa, Vatkan hamda Qo'zibek mahallalarida qo'shimcha yangi transformator punkti va zarur beton tayanch ustunlari o'rnatish, tarmoqlarini yangilash ishlari boshlandi.

- Joriy yilda hududdagi 16 ta mahallada elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida 7 ta transformator punkti va 400 dan ortiq temir-beton ustuni o'rnatish, 30 kilometr elektr uzatish tarmog'i tortish ko'zda tutilgan, - deydi Dehqonobod elektr ta'minoti korxonasi boshlig'i Saidali Mavlonov. - Ayni paytda Sanchiqul hamda Ukrach mahallalarida 3 ta transformator, 70 ga yaqin beton ustuni o'rnatilyapti. Ishchilarimiz tomonidan 2,7 kilometr past kuchlanishli, 500 metr yuqori kuchlanishdagi tarmoq tortish amalga oshirilmoqda. Shuningdek, tashabbuskor fuqarolar ko'magida 23 ta transformator hamda 1150 ta temir-beton ustun o'rnatildi. Omonqo'ton hamda Qorabuloq mahallalarida elektr energiyasi ta'minotini yaxshilash maqsadida 2 ta transformator punkti, 100 ta temir-beton ustuni o'rnatildi. 8 kilometr elektr uzatish tarmog'i tortilib, ishga tushirildi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida Ipak yo'li mahallasida 1 ta transformator, 400 metrga yaqin elektr uzatish tarmoqlari tortish ishlari amalga oshirilmoqda.

**Dilmurod TO'XTAYEV.**

Dardning nimaligini boshidan o'tkazgan biladi. Doim sog'-salomat yuraylik deganimiz bilan bo'lavermas ekan. Issiq jonning isitmasi bo'ladi. Biror kishi yo'qki, umrida bir marta bo'lsa ham shifokorga murojaat etmagan bo'lsa. Ular sabab bo'lib, biz oilamiz bag'riga sog'-salomat qaytamiz.

## "Yaxshiyam bor ekansiz..."

Keksalik sababli keyingi paytda tez-tez shifokorlarga ishim tushib ularga murojaat qilishimga to'g'ri kelyapti.

Dastlab tuman tibbiyot birlashmasining davolash bo'limida, keyinchalik viloyat onkologiya shifoxonasida davolanish jarayonida shifokorlarning shirin so'zi, davo muolajalari tufayli salomatligim tiklandi. Og'ir kasallikka chalingan bemorlar-da bepul jarrohlik amaliyotlari o'tkazilishi natijasida qanchadan-qancha oilalarga quvonch ulashilayotganligiga guvoh bo'ldim.

Buning uchun bir men emas, boshqa bemorlar ularning yaqinlari shifokorlar B.Kozimov, R.Qo'chqorovdan, Z.Negmatova kabi hamshiralardan minnatdor.

**Jamil MAJIDOV,**  
Oqdaryo tumani  
Pilol qishlog'i.

REKLAMA



# "Chorchinor"

oromgohi mavsumga tayyor

Urgut tumanining tog' yon bag'rida joylashgan "Chorchinor" bolalar yozgi oromgohi 300 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, atrofi manzarali va mevali daraxtlar bilan o'ralgan. Sakkizta yotoqxona, tibbiyot bo'limi, sport maydonchasi, kutubxona, kompyuter xonasi, to'garaklar, basseyn va konsert uchun sahna bolajonlar ixtiyorida.

Oromgohda bu yilgi mavsumda bolalarni sog'lomlashtirish, dam olishlarini mazmunli tashkil etish maqsadida jihozlar yangilanib, bolajonlar uchun zarur sharoit yaratilgan. Shuningdek, 50 nafardan ziyod malakali tarbiyachi-murabbiy va ishchi-xodimlar jalb etilgan. Maskanda besh davrada 1500 nafardan ziyod bolajonlar sog'lomlashtiriladi.

Bolalarning vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida ularning qiziqishini hisobga olib, sport, kitobxonlik, rassomlik, kompyuter savodxonligi, musiqa va san'at to'garaklari, intellektual o'yinlar hamda shu yo'nalishlarda ko'rik-tanlov va musobaqalar tashkil etilib, faol yoshlar rag'batlantirib boriladi.

Oromgohda 7-14 yoshli samarqandlik bolalar bilan birga boshqa viloyatlardan kelgan bolalar ham sog'lomlashtiriladi. Oromgoh yo'llanma narxi 2 million 200 ming so'm, imtiyoz asosida esa 1 million 100 ming so'm.

Oromgohga yo'llanmani [www.oromgohlar.uz](http://www.oromgohlar.uz) saytidan olishingiz mumkin.

Sizni "Chorchinor" oromgohida kutamiz!

**Manzillimiz: Urgut tumani "Chorchinor" MFY.**



REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Mir-Djafarov Said-Djamolga (2024-yil 7-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Rasulov Davronga (2018-yil 23-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda.

Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nurqosimov Jamshid Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Panjob ko'chasi, 4-uy.**

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Salimov Otobek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Haitova Halima Davronovna (2024-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Otobek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqillik maydoni.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Almatov Ulugbek Usmonovichga (2019-yil 19-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.**

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Ayupov Rinat Abdulkavichga (2021-yil 19-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Ber-

diqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.**

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Quvondikov Bahtiyor To'liqinovichga (2024-yil 9-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Za-

rina Xisravovna notarial idorasida marhum Dolganova Mariya Vasilevna (2024-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti jismoniy tarbiya va sport kafedrasida hamda universitet sport klubi jamoalari kafedra dotsenti

**Ra'no QOSIMOVA**ning vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

Эъзоз



**Инсон Аллоҳ томонидан мукамал яратилган, аммо у ўз тақдирини мукамал қила олмайди. Негаки, ҳаммага бир хилда ёқадиган одамнинг ўзи йўқ ва бўлиши ҳам мумкин эмас. Ҳар бир банд ўз феъли, хислати билан яшайди, шу йўл билан жамиятда ўрнини излайди: биров бу ўринни шўҳрат билан, яна кимдир камтарона турмуш тарзи билан топади. Бинобарин, ҳаётда энг муҳими, ўз тақдирингдан рози бўлиб яшашдир.**

## Камтарлик – улуғлик белгиси

Камина бу фикрларни бежиз қайд этмадим. Тошқул Азимов бундай мулоҳазаларни мендан анча олдин хаёлидан кечирган. Негаки, оддий, меҳнаткаш оилада камол топган кўш ўғилнинг кенжаси мактабда 23 йил дарс бериш жараёнида орттирган ҳаётий тажрибаси асосида бошқача фикрлаши мумкин ҳам эмасди. Собиқ ўқувчиларнинг айтишича, Тошқул муаллимнинг баланд овозда гапиргани ёки бировни уришганини ҳеч ким эшитмаган. Толиби илмлар ҳам бу ўқитувчи унинг ўзи каби муносабатда бўлишган.

Йўқ-йўқ, бу андиша ёки ҳадик эмас, бу – фазилат. Муаллим давраларда кўпинча сукут сақлагани билан, унинг қалби ҳамisha жўшқин хислар билан банд бўларди. У одобда шахсий ибратни, илмда эса, фикрини қозғога туширишни маъқул кўрди. Болаларга тожик тилининг нафис, нозик латофатини тушунти-



риш, кўрсатиб бериш баробарида ўзи ҳам қораламалар қилди. Дарвоқе, камина Тошқул акани Самарқандда яшаб ижод қилган таникли адиб Болта Ортиқов, Мардонқул Мухаммадулов иштирокидаги давраларда кўп бор кўрганман. У гапиришдан

кўра, асарни ўқиб ҳузур қилишни яхши кўради.

Эҳтимол, шу хислати учундир, "Овози Самарқанд" газетаси ташкил этилган, уни таҳририятга ишга таклиф этишди. Мана, 30 йилдирки, муаллим ана шу қадрдон жамоада ишлаб келади. Ишга ҳаммадан олдин келади ва таҳририятдан ҳаммадан кейин кетади. Ижодда ҳам ҳеч кимдан кам эмас. Ўтган даврда ёзган юзлаб мақолалари долзарблиги, пухта таҳлили учун жамоатчилик ичида кенг муҳокамаларга сабаб бўлди.

Т.Азимов камтарин бўлса-да, самимий суҳбатда очилиб кетади, улуғлар билан бўлган воқеалардан айтиб, даврага жон киритади. Ҳикояларида эса тарбиявий руҳни кўрамай. Бу – узоқ йиллар ёшлар таълим-тарбияси билан шуғулланган фидойи муаллимнинг қалбидир. **Ф.ТОШЕВ.**

## Маърифатпарвар мураббий, зукко адабиётшунос

**Бирор даврада янги дўстлар билан суҳбатга киришиш олдида дўстимиз Акбархон домлани "Ургутнинг бургут болаларидан", деб таништирар эдик. Акбархон домла эса "Эй, қўйсангиз-чи, мен ҳали чангали ҳам қотиб улгурмаган полопонман-ку", деб камтарлик қиларди.**

Сермулоҳаза, дўстлари, шогирдларига меҳрибон ва ғамхўр мураббий, ўзбек адабиёти тарихини чуқур билладиган мунаққид адабиётшунос олим, камтарин инсон Акбархон домла билан танишганимизга ҳам қарийб қирқ йил бўлди. Мана, шу "чангали қотиб улгурмаган полопон" дўстимиз, Акбархон домла бу йил етмишинчи баҳорни қаршилаб турибди. Ҳеч ҳам ишонгим келмайди...

Акбархон 1955 йил Ургут туманининг Баландқишлоғида маърифатпарвар, зиёли инсон Абдулҳай Асроров оиласида таваллуд топган. У зиёли, адолатпарвар, маърифатпарвар, элпарвар боболари изидан бориб, ёшлигидан илм-маърифатга қизиқди. Боболари ёзиб қолдирган ноёб бадиий, тарихий асарларни, уларнинг машаққатли ҳаёт тарихини ўрганиб, ёд олди (натижада "Қози Асрорхон-Муфтақир" ва "Сабрий" номи рисоалари нашр этилди).

Акбархон Ургут туманидаги 27-ўрта мактабни битириб, Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетининг ўзбек филологияси факультетига ўқишга кирди.

Университетни 1977 йилда муваффақиятли тамомлаган Акбархон ўзининг педагогик фаолиятини дастлаб Ургут шаҳридаги 22-интернат-мактабда она тили ва адабиёт ўқитувчиси лавозимидан бошлади. Орадан кўп вақт ўтмай, 1979 йил Абу Райҳон Беруний номидаги Самарқанд педагогика билим юрти ўқитувчиси лавозимига таклиф этилди. Унинг педагогик маҳорати, она тили ва адабиётнинг нозик қирраларини кашф этиш борасидаги истеъдоди мана шу педагогика билим юртида шаклланди, ривожланди, такомиллашди. Ёш педагог мутахассиснинг таълим соҳасидаги ташаббускорлиги, ижодкорлиги, мураббий сифатидаги меҳнати муносиб баҳоланди, 1984 йилда "Ўзбекистон халқ таълими аълочиси" кўкрак нишони билан тақдирланди.

Акбархон Асроровни илм оламига етаклаган, уни қўллаб-қувватлаган инсонлардан бири Муслихиддин Мухиддинов бўлса, яна бири адабиётшунос олим Обрўй Эшмуродов эди. Уларнинг таклифи билан дўстимиз 1989 йилда Самарқанд давлат педагогика институтининг она тили ва адабиёт факультетига иш бошлади. 1993 йилда Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, филология фанлари доктори, профессор Раҳим Муқимов раҳбарлигида номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди ва филология фанлари номзоди бўлди.

Самарқанд давлат педагогика институти Самарқанд давлат университети билан бирлаштирилган, Акбархон



Асроров бир муддат филология факультетининг факультетлараро ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ассистенти лавозимида фаолият юритди. Ўз ишининг билимдони, маърифат ва маъориф тизимини яхши ўзлаштирган Акбархон Асроров 1996-2001 йилларда Самарқанд вилояти педагог ходимлар малакасини ошириш институти проректори, кейинроқ мазкур институт ижтимоий фанлар, маънавият ва маърифат кафедрасининг муdiri лавозимларида фаолиятини давом эттирди. Кейинчалик Ургут тумани халқ таълими бўлими муdiri ўринбосари, Ургут иқтисодий коллежи директори лавозимларида фаолият юритди.

Доцент Акбархон Асроровнинг олтидан ортиқ илмий ва илмий-услубий ишлари чоп этилган. Улар таълим тизимида кенг қўлланилмоқда. У ўзининг кўп йиллик илмий-педагогик фаолияти билан Самарқанд давлат университетининг Ургут филиали профессор-ўқитувчилари, Ургут тумани маориф тизими ходимлари ўртасида ҳурмат-эътиборга эга маърифатли, юксак маънавиятли, маданиятли педагог ходимдир.

Ҳаётининг эллик йилга яқин қисмини таълим-тарбияга, ёшларга илм улашишга бағишлаган Акбархон Асроров пенсияга чиққанидан сўнг ҳам уйда тибиб-тинчиб ўтиргани йўқ. Ургут туманида Самарқанд давлат университетининг филиали очилган, шу ерда фаолият юритиб келмоқда. Айни пайтда тилларни ўқитиш методикаси кафедраси доценти, филиал нурунийлар кенгашининг жамоатчилик асосидаги раиси сифатида олиб бораётган ишлари ҳам эътиборга лойиқ.

Шу билан биргаликда, Акбархон Асроров ўз маҳалласининг ободончилик ишларига, жумладан, "Шайх Ҳодий – Ер масжид" зиёратгоҳини қайта тазмирлаш ишларига ҳомийлик ва раҳбарлик қилди.

У намунали оила бошлиғи, суюкли турмуш ўртоқ, ғамхўр ота, бир этак неварачевараларнинг меҳрибон бобоси.

Филология фанлари номзоди, доцент Акбархон Асроровни кўтлуг 70 ёшга тўлиши билан муборакбод этамиз. Устозга мустаҳкам соғлик, бахтли ва шодликларга тўла узоқ умр, илмий, ижодий, педагогик фаолиятида улкан зафарлар тилаймиз.

**М.БОЛТАЕВ,**

**Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети доценти.**

**И.БОБОҚУЛОВ,**

**СамДУ Ургут филиали профессори.**

## Ikki yilda 50 nafardan

## ziyod kishi suvda cho'kib, vafot etgan

Viloyatdagi cho'milish havzalarining holati qanday?

**Yozning jazirama kunlarida ko'pchilik salqin joylarga borishni va suv havzalarida cho'milishni xohlaydi. Ayniqsa, bolalar ta'til paytida daryo, kanal, soy bo'yiga talpinadi. Va taqiqlangan suv havzalarida cho'milish oqibatida hayotdan bevaqt ko'z yumgan fuqarolar haqidagi sovuq xabarlar tarqala boshlaydi.**

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda har yili 310 ming kishi suv havzalarida cho'kib, vafot etadi. Misol uchun, ikki yil oldin Paxtachi tumanida Zarafshon daryosiga uch nafar voyaga yetmagan bola cho'milgani borib, ehtiyotsizlik oqibatida cho'kib ketgandi. Buning asosiy sababi esa cho'milish mumkin bo'lgan suv havzalarining yetishmasligi va xavfsizlik qoidalariga amal qilmaslikdir.

Xo'sh, viloyatda suvda cho'kish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Umuman, Samarqanddagi suv havzalarining bugungi holati talabga javob beradimi, viloyatda nechta qutqaruv brigadasi bor?

- Viloyatda 35 ta cho'milish suv havzasi ro'yxatdan o'tgan, - deydi viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i Begzod Nazarov. - Bugungi kunda viloyatda maxsus vazifalarni bajaruvchi mintaqaviy qutqaruv otryadi tarkibida qutqaruv g'avvoslar brigadasi mavjud bo'lib, ularda 10 nafardan ziyod g'avvos faoliyat olib bormoqda. Suvda qutqarish ishlarini amalga oshirish uchun yetarli texnika va asbob-anjomlar mavjud.

Keyingi ikki yilda Samarqandda 41 holatda 50 nafardan ziyod fuqaro suvga cho'kib, vafot etgan. Mavsum oldidan viloyatning hududiy favqulodda vaziyatlar bo'limlari hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda barcha tuman va shaharlarda cho'kish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish holati o'rganilib, muammo va kamchiliklar bartaraf etildi. Shuningdek, viloyat xududida cho'milish taqiqlangan, qo'riqlanmaydigan fuqarolar cho'milishi ehtimoli bo'lgan 76 ta xavfli uchastka aniqlangan bo'lib, ko'llar, daryolar, kanal va ariqlar hududida yuzga yaqin taqiqlovchi belgilar o'rnatildi. Ayni paytda kamchilik aniqlangan oltita cho'milish havzasida hamda mahallalarda, o'quv



muassasalari va suv xo'jaligi obyektlarida profilaktik tadbirlar davom etmoqda.

Suvga cho'kish holatlarining aksariyati suv harorati doimiy past va oqim tez bo'lgan cho'milish ruxsat etilmagan joylarda qayd etilgan. Bunday joylarga Zarafshon, Oqdaryo va Qoradaryo daryolari, Kattaqo'rg'on, Oqdaryo, To'sinsoy, Qorasuv va Qoratepa suv omborlari, Darg'om, Bulung'ur, Shaxob, Xatirchi-Miyonqol, Tuyatortar, Mirzaariq, Kattaqo'rg'on suv omboriga kirish va chiqish, Narpa va Siyob kanallari kiradi.

Mazkur suv obyektlari qishloq xo'jaligida melioratsiya tadbirlari uchun suv yetkazib berish maqsadida barpo etilgan. Bu joylar cho'milishga mo'ljallanmagan va cho'milish tavsiya etilmaydi. Chunki suvning gigiyenik holati talabga javob bermaydi, oqim juda tez, ba'zi joylarda keskin, chuqurlik tik va botiq, suv osti notekis va noma'lum, ko'rish darajasi juda past, qirg'oqlari beqaror, eng yomoni, yordam berishga shay turadigan qutqaruvchilar yoki qutqaruv asbob-anjomlari bilan jihozlanmagan.

**Iltihom BOQIYEV.**

**P.S:** Mavsum oldidan bunday profilaktik tadbirlar olib borilishi yaxshi. Lekin yoz mavsumida aholi cho'milishi uchun xavfsiz, belgilangan me'yorlarga javob beradigan suv havzalari tashkil etish haqida o'yab ko'rilganmi? Nega har yili amalga oshirilayotgan yuzlab loyihalar orasida bunday joylar nazarda tutilmayapti? Samarqandliklar qaysi suv havzasiga borsin?

Мулоҳаза



**Мақтабда ўқийдиган бола ниҳоятда қизиқувчан бўлади. Лекин бола айрим масалаларда отаси ва онасидан "бу нима, у нима?" каби саволларига жавоб ололмади. Улардан "билмадим, ўқитувчингдан сўра", "ҳозир вақтим йўқ, кейин гаплашамиз" каби жавоб олаверди. Келгусида эгаллайдиган касби юзасидан эса ота-она фарзанди билан суҳбатлашишга вақт ажратмади.**

## Бола нега ўғри бўлади?

Бола – бола-да. Ўзича кўп хаёлларга борди, ота-онаси эътиборини тортиш йўлларини қидирди. Бир куни отасининг чўнтагидан пул ўғирлади. Табиийки, буни ота сезиб қолди. Аввалига суҳбатлашишга имкон топа олмаган эр-хотин дастлаб ўғилни роса тергаб уришди, кейин унинг ҳар бир ҳаракатини кузата бошлади.

Ўғил "демак, ўғирлик қилсам, ота-онам менга эътибор қилар экан", деган фикрга келди ва шу йўлни танлади. Ота-она эса эътиборсизликлари сабаб фарзандлари тарбиясини издан чиқарганди.

Айтингчи, энди улар фарзандининг қилмишидан нолишга ҳақлими?

**Мамаюнус ПАРДАЕВ,**

**иктисод фанлари доктори, профессор.**

## Адабиёт ўқитувчингизни эслайсизми?

**Мақтаб даври энг ёдда қоларли ва турли воқеаларга бойлиги билан киши хотирасида алоҳида ўринга эга. Айниқса, бизни бирор бир фанга қизиқтирган ўқитувчи инсон хотирасида ҳам, ҳаётида ҳам ўчмас из қолдиради.**

Мен кўпинча адабиёт ўқитувчимизни эсламан. Бошланғич синфларда устозларимиз бизга жуда кўп шеър ёдлатарди. Синфлар, мактаблар, ҳудудлар ўртасида мушоира кечалари ташкил қилинар, ўқувчилар бундай мусобақаларга жиддий тайёргарлик кўрардик. Шунданми, бошланғич синфдаёқ 200-250 тагача шеърни ёддан билардик. Бу шеърлар бир умрга ёдимизда муҳрланиб, улгайганимизда ҳам уларни тақрорлаб юрибимиз. Шеърнинг ҳикмати киши тафаккурини чарқлайди, инсонпарварлиқни шакллантиради, одамлар ўртасига меҳр-муҳаббат уруғини екади.

Яқин-яқинларгача тенгқурларимиз давраларда Алишер Навоий, Фузूलӣ, Мирзо Бедил каби мутафаккирларнинг байтларидан, Абдулла Орипов, Эркин Воҳидов, Омон Матжон каби шоирларнинг шеърларидан айтиб, унинг мағзини чақар эди. Қизиги, бу кишилар адабиёт ўқитувчиси эмас, математик, физик, ҳатто таълимга алоқадор бўлмаган бошқа бирор соҳа кишиси эди. Таажжублантирадигани - ҳозир беш-ўнтадан кўп шеър билмайдиган адабиёт ўқитувчилари бор. Шунинг учун мактабдан қайтаётган болаларнинг баралла шеър ўқийётгани ёки аниқ фанлардан бирор масаланинг ечимини устида баҳslashаётганини кўрмайсиз. Ҳар бири қўлидаги шапалоқдек телефонга тикилганича, салом-алиқисиз, ҳурмат-иззатсиз ўтиб-қайтаётгани кишини ташвишга солади. Зеро, адабиёт сўзининг ўзаги одобдир.

**Турди ТУРСУНОВ,**

**Пайариқ тумани.**



**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 590 nusxada chop etildi. Buyurtma 246. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**X.ERNAZAROVA.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda